

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

## O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI TERMINOLOGIYASINING TADRIJIY RIVOJLANISH BOSQICHI

Xatamova Dilfuza Abduvaxabovna  
O‘zbekiston milliy universiteti dotsenti

*Annotatsiya:* Mazkur maqolada jahon adabiyotshunosligida terminologik muammolar tadqiqi, o‘zbek adabiyotshunosligi terminologiyasining nazariy asoslari tadqiq qilinadi.

*Kalit so‘zlar:* terminologik baza, adabiyotshunoslik atamalari identifikatsiyasi, signifikat, strukturalizm hamda postmodern adabiyot.

Globalashuv asrida texnokratlashgan olam manzarasi yangicha taraqqiy etayotgan ilm-fan, madaniyat, adabiyot, san’at va boshqa sohalarning integratsiyasi natijasida o‘zgacha tus olmoqda. Fanlarning tadrijiy rivoji nazariy qonuniyatlarni umumlashtirish va tizimlashtirish jarayonini taqozo etadi. Adabiyotshunoslikning uch ming yillik taraqqiyoti davomida u yoki bu muammo va masalalarni aks ettiruvchi termin hamda tushunchalar paydo bo‘lgan. Bu ilmiy-adabiy jarayon har bir milliy adabiyotshunoslikda o‘ziga xos tarzda shakllangan va rivojlanish yo‘liga kirgan. Yevropa adabiyotshunosligida XVII-XVIII asrlarda terminologiya masalasiga jiddiy e’tibor qaratilib, adabiy jarayondagi mavjud hodisalarni o‘zaro yaqin atama va tushunchalar bilan ifodalash yaxlit tizimga solingan. Ushbu ilmiy jarayonning asosi sifatida yunon va lotin tilidagi atamalar qabul qilinib, ular negizida terminologiya asoslarini boshqa Yevropa tillarida shakllantirish urf bo‘lgan. Bu jarayon XVIII asrning oxiri XIX asr boshlaridan Rossiyaga ko‘chib o‘tgan va yunon-lotin terminologiyasiga tayanilib, rus adabiyotshunosligida terminologik baza yaratilgan. XIX asr o‘rtalarida shakllangan bu jarayon hozirga qadar davom etmoqda.

Jahon adabiyotshunosligida terminologik muammolarning tadqiqi va adabiy jarayonga tatbiqi ilmiy akademik maktablar faoliyatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Yevropa adabiyotshunosligida sezilarli iz qoldirgan mifologik (A. Duglas, V. Grimm, Ya. Grimm, A.N. Veselovskiy), nazariy poetika (A.A. Potebnya), formal (V. Shklovskiy, V. Jirmunskiy va boshqalar) va struktural (K. Levi-Stros, R. Bart, Yu. Lotman) maktablar faoliyatida adabiyotshunoslik terminologiyasini identifikatsiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. XIX-XX asr bo‘lag‘asida modernizm va uning ko‘rinishlari, strukturalizm hamda postmodern adabiyotining ommalashuvi jarayonida adabiyotshunoslik atamalari identifikatsiyasi jiddiy o‘rganilishi lozim bo‘lgan ilmiy-nazariy muammo darajasiga ko‘tarilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligi terminologiyasining nazariy asoslari arab va fors mumtoz poetikasi doirasida shakllantirilgan bo‘lib, ular XX asr boshlariga qadar arab-fors-turk mumtoz adabiyotshunosligining terminologik bazasini tashkil etgan. XX asr boshlarida A. Fitrat, A.Sa’diy ishlarida o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligining

# “O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

## mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

terminologik apparatini yevropacha andozalarga solish jarayoni boshlangan. Bu hodisa ayniqsa, sho‘ro adabiyotshunosligida mafkura tazyiqi ostida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ilmiy rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining terminologik bazasini yaratishda, *birinchidan*, Sharq mumtoz poetikasi terminologik asoslariga tayanilgan bo‘lsa, *ikkinchidan*, rus tili orqali kirib kelgan G‘arb adabiyotshunosligi terminologiyasi asos sifatida qabul qilingan. O‘zbek adabiyotshunosligida terminologiya taraqqiyoti tamoyillarining nisbatan sustligi tufayli milliy adabiyotshunoslikdagi terminologiya identifikatsiyasi va transformatsiyasining o‘rganilishi XX asrning 80-yillariga hamda istiqloq davriga to‘g‘ri keladi. Terminologik muammolarning yechimi rus va o‘zbek adabiyotshunosligi terminologiyasi taraqqiyotini yangi pog‘onaga ko‘tarishga yordam beradi. Bu esa kelgusida milliy adabiyotshunoslikni jahon adabiyotshunosligi darajasiga yaqinlashtirishga o‘z ulushini qo‘shadi.

Adabiyotshunoslikda adabiyot terminologiyasi masalalari nazariy adabiyotlar tarkibida berilgani va ayrim terminlarning izohi yuzasidan bildirilgan mulohazalar L.I.Timofeyev, G.N. Pospelov, Yu.Borev, V.Ye.Xalizev, N.D.Tamarchenko, V.I.Tyupa va boshqalar tomonidan yaratilgan “Adabiyot nazariyasi”<sup>1</sup> va “Adabiy janrlar nazariyasi” kabi darsliklarda<sup>2</sup> aks etgan.

Adabiyotshunoslik terminlar tizimi gumanitar sohaga tegishliligi, ular ilmiy terminlar doirasiga qirishi va terminoloyasi estetik tafakkurning predmeti sifatida ko‘rilishi, binobarin, termin tushunchasining o‘zi ham estetik mohiyat doirasida o‘rganilishi adabiyotshunos olimlarning diqqat markazida turmog‘i lozim. Zamonaviy adabiyotshunoslikda termin – tushuncha – termin-tushuncha – termin – signifikat, predmet – denotat va izohlovchi so‘z – belgi zanjiri orqali ifodalanishi, termin fanning terminologik va kategorial apparati (adabiyot nazariyasi, san‘at yoki esteta nazariyasi) – termin-kategoriyaning (latiflik, go‘zallikning bir ko‘rinishi) jihatlarini ochib beruvchi termin<sup>3</sup> sifatida izohlanishi, bir tarafdin, terminning ma’no

<sup>1</sup> Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1976; Пospelov Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978; Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978; Адабиёт назарияси. 1-2 ж. Т.: Фан, 1978; Боров Ю. Искусства интерпретации и оценки. – М.: Сов. писатель, 1981; Гуляев Н.А. Теория литературы. М., 1985; Томашевский В.Б. Теория литературы. Поэтика. М., 1996; Кормилов С.И. Основные понятия теории литературы. М., 1999; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 2005; Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Т.: O‘qituvchi, 2005; Теория литературы в 2 томах. Под ред. Н.Д.Тамарченко. – М., 2006; Каллер, Джонатан. Теория литературы: краткое введение / Джонатан Каллер: пер. с англ. А. Георгиева. — М.: Астрель: АСТ, 2006; Илтон У. Теория литературы. Введение. М. Территория будущего, 2010; Теория литературных жанров: учеб. пособие для студ. / [М. Н. Дарвин, Д. М. Магомедова, Н. Д. Тамарченко, В. И. Тюпа]; под ред. Н. Д. Тамарченко. – 2-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2012. – 256 с.

<sup>2</sup> Введение в литературоведение. Под ред. П.А. Николаева. – М.: Высшая школа, 1988; Литературоведение. Литературное произведение: Основные понятия и термины./Под ред.Л.В.Чернец// М.: Высшая школа, 1999; Введение в литературоведение. Под ред. Л.М. Крупчанова. – М.: ОНИКС, 2007.

<sup>3</sup> Боров Ю.Б. Эстетика. Теория литературы. Энциклопедический словарь терминов. – М.: Астрель, 2003. – С. 462.

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

qamrovi chegaralari uning definisiyasi bilan bog‘liqligini ko‘rsatib bersa, boshqa tarafdin, adabiyotshunoslik doirasida termin va tushunchalar, o‘ziga xos bo‘lgan funksiyalarga ega so‘zlar bo‘lib, estetik va nazariy-adabiy kategoriyalar mohiyatini ochib beruvchi sohaning ilmiy apparat ekanligini anglatadi. Bu omil termin va tushunchani ushbu ish doirasida to‘laqonli sinonim sifatida ishlatishga asos va imkon yaratadi va asar zaminidagi mohiyatni anglatuvchi belgi tariqasida anglanib, badiiy matn mazmun tabiatini yangi qirralarini ochib beruvchi serqatlam ramziy sarhatlar sari yetaklaydi. Terminning mazmun mohiyati uning izohi bilangina emas, balki ushbu sohada shakllangan ilmiy terminologik tizimning bir elementiga aylanib, zanjirning to‘laqonli faoliyatini ta‘minlab berishi bilan ham belgilanadi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy obraz termini tashigan ma‘no xususiyatlarining hammasi birgina so‘zda jam bo‘lishi kerak. Agar uning muqobili sifatida bugungi kunda tavsiya etilayotgan qiyofa, ko‘rinish, siymo, surat, timsol so‘zlariga e‘tibor qaratsak, ularning hech biri obraz terminiday ko‘p ma‘noli bo‘la olmasligini, qolaversa, boshqa millat vakillari tomonidan tushunarli bo‘lavermasligini ham kuzatamiz. Shuni ham inobatga olish keraki adabiyotshunoslik yo‘nalishlari kengayar ekan, uning ichidagi tushunchalar ham o‘z ma‘no qamrovi chegaralarini kengaytirib boraveradi. Shu o‘rinda bu xulosa obraz terminiga ham tegishli bo‘lib, bugungi kunda obraz-ramz yoki bo‘lmasa obraz-tasavvur kabi turlari adabiy ilmda mavjud. Terminologik jihatdan har bir davr badiiy poetikasi kesimida syujet turlicha izohlanib, uning fabula bilan munosabatini aniqlashtirilish orqali ma‘no qamrov chegaralari belgilanadi. Har bir davrning badiiy poetika miqyosida yangidan yangi syujet turlari va usullari vujudga keldi. Jumladan:

- 1) sinkretizm – syujet-motiv;
- 2) elenizm – syujet-situatsiya (syujet-vaziyat);
- 3) yangi davr (18-19 asr) – shakllanish syujeti

S.N. Broymanning birinchi turdagi syujet-motiv va A. Veselovskiyning sayyor syujetlari zamirida bir adabiy hodisa turib, terminologik nomlanishidagina farq mavjud. Ikkinchi turdagi syujet-situatsiya hodisasining ma‘no qamrovi mifologik motivdan chekinib, insonni shaxs sifatida asar voqeligi markazi deb belgilab, qahramon o‘sha zamon va makondagi qonuniyatlar, shart-sharoitlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ish tutishi, uning fe‘l-atvori ko‘rsatib o‘tgan omillar asosida shakllanishi nazarda tutiladi. Bu turdagi syujetda bosh omil sifatida vaziyat belgilanadi, “syujet – vaziyatni o‘rganish, uning imkoniyati tasvirlangan voqealarda qahramonning “daxlsiz ishtiroki”ning maxsus turiga asoslanadi va syujet-vaziyat (syujet-situatsiya) turini ajratilishiga sabab bo‘ladi. Ushbu turlar muallifga badiiy asarning serqirra va serqatlam semantik maydonini ochishga, kitobxonga

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

bugungi kundagi sermazmun badiiy obraz mohiyatini chuqur idrok etishga, reallikdagi hodisalarni teranroq anglashga imkon yaratadi.

XX asrning so‘nggi yillaridagi adabiy muhitida shunday asarlar dunyoga keldiki, uning kompozision jihatdan qurilishi eksperimental maydonga aylandi. Kompozisiya endi oddiy asar qurilishi emas, balki ayni shu joylashuvni adabiy yo‘nalish (postmodernizm) qonuniyatlariga asoslanganligi va shundan kelib chiqib, muallif g‘oyasini yetkazib berishda ishlatiladigan usullarga nisbatan aytiladi. Masalan, nuqtai nazar, ong oqimi, absurd va hokazo. L. Chernes, N.D. Tamarchenko, Ye.N. Skibalar ularni kompozisiya aspektlari deb nomlaydi. Demak, badiiy shakl bilan eksperimentlar kompozisiya ma’no qamrovi chegaralarini yanada kengaytirib, uning ifoda usullari kengaydi. Postmodernizm yo‘nalishi asarda ko‘tarilayotgan mavzu va muammolar qamrovini o‘zining cheksizlikka intilayotgan mezonlari negizida belgiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1976;
2. Пospelов Г.Н. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1978;
3. Уэллек Р., Уоррен О. Теория литературы. – М.: Прогресс, 1978;
4. Гуляев Н.А. Теория литературы. М., 1985; Томашевский В.Б. Теория литературы. Поэтика. М., 1996;
5. Sul-ton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O‘qituvchi, 2005; Теория литературы в 2 томах. Под ред. Н.Д.Тамарченко. – М., 2006;
6. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – T.: Академнашр, 2010. – Б.120.
7. Хатамов Н., Сарымсаков Б. Русско-узбекский толковый словарь литературоведческих терминов. – T.: Ўқитувчи, 1979. – С. 240.